

O'ZBEK O'QUV LUG'ATCHILIGIDA DARAJALANISH HODISASINING ILMIY TALQINI

Qahramon Bakir o'g'li ESHBOYEV

dotsent

Filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Renessans ta'lim universiteti

Toshkent, O'zbekiston

eshboyev202020@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek o'quv lug'atchiligida darajalanish hodisasining ilmiy-metodologik asoslari hamda uning leksikografik amaliyotdagi ahamiyati tadqiq qilingan. Lug'atlarda so'z ma'nolarining bir-biridan semantik, uslubiy va pragmatik jihatdan farqlanishi darajalash tamoyili orqali namoyon bo'lishi va buning natijasida lug'at foydalanuvisi uchun tushunarli, tizimlashtirilgan ma'lumot berilishi asoslangan. So'zlar o'rtasidagi ma'no bo'yicha iyerarxiyani tuzishdagi uslublar, darajalangan izohlar orqali lug'atlardagi ta'limiy ahamiyatni oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mavjud o'quv lug'atlari misolida darajalashni samarali tatbiq etish holatlari tahlil qilinib, ushbu yo'nalishdagi muammolar va takliflar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: o'quv lug'atchiligi, darajalash hodisasi, leksikografiya, so'z ma'nosi, semantik iyerarxiya, izohli lug'at, uslubiy darajalash, leksik birliklar, lug'at tuzish metodologiyasi, ta'limiy lug'atlar.

НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА ОЦЕНКИ В УЗБЕКСКИЙ УЧЕБНОЙ ЛЕКСИКЕ

Кахрамон Бакир оглы ЭШБОЕВ

доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Педагогический университет Renessans

Ташкент, Узбекистан

eshboyev202020@gmail.com

Аннотация

В данной статье изучаются научно-методические основы явления градации в узбекской учебной лексикографии и его значение в лексикографической практике. В ее основу положен принцип градации, который базируется на том, что в них отражаются семантические, методические и прагматические различия между значениями слов в словарях, и в результате предоставляется понятная, систематизированная информация для словарно-справочного пользования. В статье рассматриваются методы построения иерархии значений между словами, возможности повышения учебной ценности словарей за счет градуированных пояснений. Также на примере существующих учебных словарей анализируются случаи эффективной реализации градации, излагаются проблемы и предложения в этом направлении.

Ключевые слова: учебная лексикография, феномен градации, лексикография, значение слова, семантическая иерархия, толковый словарь,

методическая градация, лексические единицы, методика построения словаря, учебные словари.

Tilshunos B.Bahriddinova so'nggi yillarda maktab o'quvchilari uchun yaratilgan o'quv lug'atlari xususida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi [1;186]: "2006–2009-yillar oralig'ida o'zbek tilida mavjud lug'atlar negizida maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan yigirmadan ortiq o'quv lug'ati yaratilib, "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan nashr etildi. Jumladan, B.Mengliyev va B.Bahriddinovaning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" (2007, 2009), N.Mahmudovning "So'z sandiqchasi" (2020), O.Shukurov va B.Boymatovaning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), B.Mengliyev, B.Bahriddinova va O'.Xoliyorovning "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati" (2008), U.To'rayeva va D.Shodmonovaning "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), Sh.Bobojonov va I.Islomovning "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati" (2007, 2009), Y.Hamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), B.Mengliyev va M.Xudoyberdiyevaning "O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati" (2007, 2009), T.Nafasov va V.Nafasovaning "O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati" (2007), X.Suvonova va G.Turdiyevaning "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007, 2009), X.Norxo'jayevaning "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati" (2006), T.Nafasov va V.Nafasovaning "O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv lug'ati" (2008), shuningdek, mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "Ona tili. Qomus" (2009) kitoblari dastlabki tajribalar sifatida yuzaga keldi. Yaratilgan mazkur lug'atlar keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. 2009-yilda ularning ba'zilar ehtiyoj tufayli Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ma'lum bir maqsadda qayta nashr qilindi. Maxsus monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, mutaxassislar tomonidan turli tadqiqotlar – maqola va tezislarda ijobiy baholandi". Ko'rinadiki, o'zbek o'quv lug'atchiligida amaliy ishlar allaqachon boshlab yuborilgan. Navbatdagi vazifalar esa ularni mukammallashtirish, yangi namunalarini yaratish va amaliyotga keng joriy etish hisoblanadi, deyish mumkin.

Lug'atlar tilshunoslikda juda muhim rol o'ynaydi, chunki ular tilni o'rganish va o'rgatish jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek o'quv lug'atlari

asosan bolalar va o'quvchilar uchun tilni o'rganishga yordam berishga mo'ljallangan bo'lsa-da, ular leksikani to'liq aks ettirishda va aniqlashda ba'zi muammolarga duch kelishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda o'quv lug'atlar umumiy tuzilishi mualliflarning lug'at tuzish bo'yicha tajribasi, lug'at turi – elektron yoki bosma lug'at ekani va boshqa omillarga ko'ra takomillashib borayotgani kuzatilmoqda. Yangi avlod darajalanish o'quv lug'atining megaqurilishini shakllantirishda tadqiqotchi G.Mirxanovanning [4] amalga oshirgan ishlariga tayanishimiz mumkin. Tadqiqotchining ishida iboralarning o'quv lug'ati megaqurilishi bilan bog'liq quyidagilar qayd qilinadi: "O'quv lug'atining megaqurilishiga kirish (1); "Lug'atdan qanday foydalaniladi?", "Lug'atdan foydalanish bo'yicha ko'rsatma", "Lug'at bilan ishlash bo'yicha yo'riqnoma" kabi nomlar bilan yuritiladigan o'quv-metodik ta'minot (2); lug'atda foydalanilgan shartli qisqartmalar va ularning izohi (3); lug'at korpusi, ya'ni so'zlik (4); ilova (5)lardan tashkil topishi kerakligini aytib o'tadi. U umumiy strukturasi amaldagi leksikografik an'analarga asoslangan bir necha parametrli qismlar bilan birga leksik birliklarni lug'atda o'quv maqsadida taqdim qilishning innovasion metodlariga asoslangan yangi qismlar bilan boyib borishini ham ta'kidlaydi".

Leksikografik izohlash muammolariga kiritiladigan ayrim asosiy masalalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Izohlarning aniqligi va soddaligi. O'zbek o'quv lug'atlarida so'zlar va iboralar oddiy va tushunarli tarzda izohlanishi kerak. Biroq, ba'zi lug'atlarda so'zlarning o'zi yoki ularning ma'nolari murakkab va noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Bu esa o'quvchilar uchun qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Izohlar maxsus o'quvchilar uchun, ya'ni yoshlar yoki maktab o'quvchilari uchun aniq va sodda bo'lishi lozim.

Sinonimlar va antonimlar masalalar. Sinonimlar (bir xil yoki yaqin ma'noga ega so'zlar) va antonimlar (qarama-qarshi ma'no ifodalovchi so'zlar) o'quv lug'atlarida to'liq va aniq izohlanishi kerak. Ba'zi lug'atlarda sinonimlar va antonimlar to'g'ri tanlanmasligi yoki ularning qo'llanilishi noto'g'ri bo'lishi mumkin, bu esa so'zlarning to'g'ri anglanishiga halaqit beradi.

Qo'llanilish doirasi. Ba'zi so'zlarning qo'llanilish doirasi va konteksti ham tushuntirilishi kerak. O'zbek o'quv lug'atlarida bu jihatni e'tiborga olish zarur. Ba'zi so'zlar faqatgina adabiy tilda yoki ma'lum bir jamiyatda qo'llanilishi mumkin, shuning uchun lug'atda ularning qaysi kontekstdan foydalanilishini ko'rsatish muhimdir.

Ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstlar. O'zbek tilida ba'zi so'zlar faqat ma'lum bir tarixiy yoki madaniy kontekstda ma'no anglatadi. Bunday so'zlar lug'atlarda o'ziga xos izohlar bilan birga keltirilishi kerak. Masalan, turli hududlardagi dialektik farqlarni ko'rsatish yoki tarixiy so'zlarni to'g'ri izohlash muhim ahamiyatga ega.

To'liqlik va aniqlik. O'zbek o'quv lug'atlaridagi ba'zi so'zlar qisqacha, lekin aniq bo'lishi kerak. Ammo ba'zi lug'atlar, ayniqsa yangi o'quv kitoblari yoki axborot texnologiyalari bilan bog'liq so'zlar haqida aniq va keng qamrovli ma'lumotlar yetishmaydi. Bunday lug'atlarga yangiliklar kiritilishi zarur.

Tushuntirish uslubining xilma-xilligi. Leksikografik izohlar turli usullar bilan berilishi mumkin: matnli izoh, rasmlar, sinonim va antonimlar keltirish, amaliy misollar bilan tushuntirish kabi. Bu usullarni lug'atlarda qo'llash orqali o'quvchilarga o'rgatish yanada samaraliroq bo'ladi. Shuningdek, bunday lug'atlarni yaratishda mahalliy so'zlar, madaniyat va tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. O'zbek tili va uning dialektlaridagi farqlarni e'tiborga olish orqali, lug'atlarni yangilash va ularni mukammallashtirish mumkin.

Til o'rganish jarayonida o'quv lug'atlari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilar so'z ma'nolarini, qo'llanilish sohalarini hamda grammatik va uslubiy xususiyatlarini oson o'zlashtiradilar.

Tilshunos olim B.Bahriddinova so'nggi o'n yillik leksikografiya tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va juda tez o'zgaruvchan sohasi ekanligini isbotladi deya e'tirof etadi. Lug'at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko'zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko'pgina jihatlarga bog'liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq

ravishda lugʻatlarning rang-barang koʻrinishlarining yuzaga kelishi, umuman, lugʻatchilik taraqqiyoti – til va uning egasi boʻlgan millatning taraqqiyoti bilan bogʻliq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi [1;216].

B.Bahriddinova yosh avlodni maʼnaviy barkamol, hozirjavob, mustaqil fikrli, izlanuvchan, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash davr talabi ekanligini, oʻquv lugʻatlarining zamonaviy koʻrinishlariga boʻlgan ehtiyoj yuqori ekanligini aytib oʻtadi. Olima bugungi kunda yurtimizda oʻquv lugʻatchiligi tarmogʻini ilmiy asosda rivojlantirish, oʻquv lugʻatlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga qoʻyishni taklif qilmoqda. Shuningdek, istiqlol yillarida yaratilgan oʻquv lugʻatlarida ona tili va boshqa xorijiy tillarni, milliy tilning leksik qatlamlarini, yozma va ogʻzaki nutq meʼyorlarini oʻrganish, oʻquvchilarning soʻz boyligi, tafakkurini kengaytirish, yozma savodxonligini oshirish bosh vazifa qilib olingan boʻlsa, ayni paytda oʻquv leksikografiyasi oldida davr talablaridan kelib chiqib yangi avlod oʻquv lugʻatlarini yaratish, mavjud lugʻatlarni kompyuterlashtirish bilan bogʻliq vazifalar oldimizda turganligini taʼkidlamoqda [1;216].

Oʻzbek leksikografiyasida, qolaversa, oʻzbek oʻquv lugʻatchiligida tilshunos olim B.Bahriddinovaning tadqiqot ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, u oʻzbek tilshunoslari orasida birinchilardan boʻlib, oʻquv lugʻatchiligini keng planda kun tartibiga olib chiqdi. Olima zamonaviy oʻzbek oʻquv lugʻatchiligi taraqqiyotini quyidagi muhim tamoyillarga asoslanishini izohlaydi:

1) zamonaviylik – jahon oʻquv leksikografiyasining soʻnggi yutuqlariga asoslanib oʻquv lugʻatlarining yangi avlodi – bosma va elektron shakldagi lugʻatlarni tuzish, oʻquv lugʻatlarining lingvometodik taʼminotini zamon talablariga moslashtirish;

2) takomillashganlik – axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma oʻquv lugʻatlarini elektronlashtirish, taʼlimning turli bosqichlari, xususan, yuqori sinf oʻquvchilari, oliy taʼlim tizimida tahsil oluvchilar uchun turli fanlar boʻyicha terminologik lugʻatlar,

o‘quv ensiklopediyalar, katta o‘quv lug‘atlarini yaratish, izoh tipidagi lug‘atlarda leksikografik semantizatsiyani zamon talablari nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish;

3) kompyuterlashganlik – umumiy lug‘atlar negizida elektron lug‘at turlarini boyitish, turli elektron qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan interaktiv lug‘atlar, korpus lug‘atlarni tuzish; imlo, talaffuz me‘yorlari, tarjima, tilning turli leksik sistemalar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so‘zlar kabi)ini o‘rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish; internet saxifalarida bolalar uchun mo‘ljallangan elektron o‘quv lug‘atlarining maxsus saytlarini yaratish;

4) leksikografik kompetentlik – foydalanuvchilarda o‘quv lug‘atlarining zamonaviy ko‘rinishlari bilan ishlash ko‘nikmasi, lug‘atlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida leksikografik kompetentlikni shakllantirish.

B.Bahriddinova ushbu vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi [1;223].

O‘zbek o‘quv lug‘atchiligida darajalanish hodisasi leksikografik tadqiqotlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir. So‘zlar ma’nosini semantik va uslubiy darajalarda aniq belgilash, o‘quvchilar uchun lug‘at materiallarini tushunarli va tizimli taqdim etish imkonini beradi. Darajalash orqali lug‘atdagi ma’lumotlar nafaqat ma’no jihatdan, balki ta’limiy va tarbiyaviy jihatdan ham boyitiladi. Shu bois, o‘quv lug‘atlarini tuzishda darajalash tamoyilini ilmiy asosda qo‘llash va bu sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur hisoblanadi. Bunda zamonaviy talablar va foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 260 б.

2. Новиков Л.А. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии / Под ред. П.Н. Денисова и Л.А. Новикова. – Москва: МГУ, 1969. – 188 с.

3. Нормаматов С.Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. фан докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 250 б.

4. Мирханова Г. Ўзбек тилининг синонимлар ўқув изоҳли луғатини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – 138 б.

5. Dadaboyev D., Abjalova M., Rashidova U. O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2023. – 810 b.